



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI
STATISTIKA AGENTLIGI**

2024- yil “25” aprel

BUYRUQ № 52

Toshkent sh.

**“Sanoat ishlab chiqarishining texnologik rivojlanishi darajasini
statistik baholash bo‘yicha tartib”ni tasdiqlash to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasining “Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024- yil 4- martdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-114- son qarori ijrosini ta’minlash, shuningdek, sanoat ishlab chiqarishining texnologik rivojlanishi darajasini statistik baholash bo‘yicha tartibni yanada takomillashtirish maqsadida, **buyuraman:**

1. “Sanoat ishlab chiqarishining texnologik rivojlanishi darajasini statistik baholash bo‘yicha tartib” ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
2. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining 2018- yil 2- noyabrdagi “Sanoat ishlab chiqarishining texnologik rivojlanishi darajasini statistik baholash bo‘yicha Tartibni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 21- son qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb topilsin.
3. Mazkur buyruq tasdiqlangan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Direktor

B. Begalov